



XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

i.f.d., prof. Shadiyeva Gulnora

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-7078-8815

shodiyeva12345@gmail.com

Karimova Shaxlo

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0006-6973-3183

shaxlokarimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'nggi yillarda mamlakatimizda har bir fuqaro uchun yuqori sifatli va malakali tibbiy xizmat tizimini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu yo'nalishda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda iqtisodiyotda xizmatlar sohasi, xususan, xususiy tibbiy xizmatlarning rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda. Xususiy tibbiy xizmatlarning kengayishi nafaqat aholining sog'lig'ini mustahkamlash, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va davlat byudjeti tushumlarini oshirishda ham muhim o'rin tutishi asoslangan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, xususiy tibbiyot, xususiy sektor, tibbiy faoliyat, aholi hayoti, investisiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiya, bandlikni ta'minlash, aholining daromadi, turmush sifati.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЧАСТНЫХ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ

д.э.н., проф. Шадиева Гулнора

Самаркандский институт экономики и сервиса

Каримова Шахло

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на том, что в последние годы создание системы качественного и квалифицированного медицинского обслуживания для каждого гражданина нашей страны определено как приоритетная задача, и в этом направлении реализуются масштабные реформы. В последние годы сфера услуг в экономике, в частности, развитие частной медицинской помощи, играет важную роль в социально-экономическом развитии страны. Это обусловлено тем, что расширение частной медицинской помощи играет важную роль не только в укреплении здоровья населения, но и в ускорении экономического роста, создании новых рабочих мест и увеличении доходов государственного бюджета.

Ключевые слова: оказание услуг, частная медицина, частный сектор, медицинская деятельность, общественная жизнь, инвестиции, цифровая экономика, инновационные технологии, занятость, доход населения, качество жизни.

THE ECONOMIC IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF PRIVATE MEDICAL SERVICES

DSc, prof. Shadiyeva Gulnora
Samarkand Institute of Economics and Service
Karimova Shakhlo
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article highlights the fact that in recent years, creating a system of high-quality and qualified medical care for every citizen of our country has become a priority, with large-scale reforms being implemented in this area. In recent years, the service sector, particularly the development of private medical care, has played a significant role in the country's socioeconomic development. This is because the expansion of private medical care plays a significant role not only in improving public health but also in accelerating economic growth, creating new jobs, and increasing state budget revenues.*

Keywords: *service provision, private medicine, private sector, medical activity, public life, investments, digital economy, innovative technologies, employment, population income, quality of life.*

Kirish.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni chuqur tadbiq etish, bandlikni ta'minlash, aholining daromadlari va turmush sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri tariqasida xususiy shifoxonalar tibbiy xizmatlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar izchil ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu tendentsiya iqtisodiy rivojlanishga shuningdek, eksport hajmi va ish o'rinlarining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda 2025-yilda qariyb 9500 taga yaqin xususiy shifoxonalar tashkil topgan bo'lib, tibbiy xizmatlar bozorida faoliyat yuritmoqda¹.

O'zbyekiston Ryesrublikasi Rryezidyentining 2017-yil, 1-apreldagi 2863-son "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi². Qarorga ko'ra sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashishni kuchaytirish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga yuqori texnologiyali sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijdan investisiyalar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etishni kengaytirish, shuningdek, tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish zarurligi belgilab qo'yildi.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslari bir qator olimlarimiz tomonidan o'rganilgan.

Mamatqulov, Qosimovalar (2013) O'zbekistonning sog'liqni saqlash tizimi, sog'liqni saqlashning asosiy tamoyillari, sog'liqni saqlash muassasalarining nomenklaturasi, sog'liqni saqlashda axborot va kommunikasiya, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti masalalari tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

Ikromov (2012) sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning ustivor yo'nalishlari borasida tadqiqot ishlarini olib borgan. Aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishda mahalliy xokimliklar va boshqaruv tashkilotlarining vazifalari xususida taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Alimov (2013) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlarini amaliy jihatlarini o'rgangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

² <https://lex.uz/docs/3150309>

Iqtisodchi olim Pardayev (2014) tibbiy xizmatlar sohasining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo'yicha rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbolari, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda har bir fuqaro uchun yuqori sifatli va malakali tibbiy xizmat tizimini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son **farmoni** bilan 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "2022 -2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-216-son **qarori** bilan 2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-38-son **qarori** bilan Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

2022-yilda joylarda 100 dan ziyod oilaviy shifokorlik punkti, poliklinikalar hamda olis va chekka hududlarda 1000 dan ortiq mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. Natijada qo'shimcha ravishda yana 3,5 million aholini birlamchi tibbiy xizmat bilan qamrab olishga erishildi³.

Oilaviy shifokorlar tomonidan aholiga bepul tarqatiladigan 70 xildagi dori-darmonlar uchun mablag'lar hajmi o'tgan yilga nisbatan 3 barobarga oshirildi.

Birlamchi tibbiyot muassasalari zamonaviy ultratovush, elektrokardiogramma uskunalari, stomatologik va jarrohlik to'plamlari bilan jihozlanmoqda.

Oilaviy poliklinikalarda kunduzgi davolash o'rinlari tashkil etilishi natijasida 740 ming kishi shifoxonaga bormasdan, bevosita o'zi istiqomat qilayotgan mahallada muolaja olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirish maqsadida ushbu klinikalarga soliq va bojxona imtiyozlari berilib, majburiy turistik yig'imlar bekor qilindi hamda davlat mablag'lari hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatishga ruxsat etildi.

O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar

³ https://gov.uz/oz/activity_page/health

bilan tug'ilishining oldini olish maqsadida respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi.

Natijada 1991-2017 yillarda umumiy o'lim ko'rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o'limi 3,1 barobar kamaydi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1995 yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda⁴.

Soha xodimlarining oylik maoshi 30 foizgacha oshirilib, ish samaradorligi va natijasiga qarab tabaqalashtirilgan rag'batlantirish hamda ustama to'lovlari joriy etilgani ham bu yo'ldagi muhim qadam bo'lganini qayd etish lozim.

So'nggi yillarda iqtisodiyotda xizmatlar sohasi, xususan, xususiy tibbiy xizmatlarning rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda. Xususiy tibbiy xizmatlarning kengayishi nafaqat aholining sog'lig'ini mustahkamlash, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va davlat byudjeti tushumlarini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xususiy tibbiy xizmatlarning iqtisodiy ahamiyati

1. Sog'liqni saqlash samaradorligini oshirish – xususiy klinikalar va markazlar zamonaviy texnologiyalarni tezroq joriy etishi, sifatli xizmat ko'rsatishi natijasida mehnat resurslarining sog'lom bo'lishiga hissa qo'shadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

2. Investitsiyalarni jalb etish – xususiy sektor tibbiyot sohasiga milliy va xorijiy investitsiyalarni kiritadi. Bu jarayon infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari xarid qilishga olib keladi.

3. Bandlik darajasini oshirish – klinika va shifoxonalarda shifokorlar, hamshiralar, texnik xodimlar va xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqa mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi.

4. Byudjetga tushumlarning ortishi – xususiy tibbiy xizmatlar faoliyati soliq tushumlari orqali davlat byudjetini to'ldiradi, bu esa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkonini beradi.

5. Raqobat muhiti – xususiy sektor davlat tibbiyot muassasalari bilan raqobatga kirishib, xizmatlar sifati va ko'lamini oshiradi.

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish ham bugungi tibbiy-ijtimoiy islohotlarning muhim yo'nalishidir. Xususiy shifoxonalarni rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, 2025-yilga kelib mamlakatimizda 9496 ta xususiy klinikalar faoliyat yuritayapti. 2024-yilning o'tgan olti oyida mamlakatimiz bo'yicha 434 ta yangi xususiy shifoxonalari tashkil etildi. Shundan 18 ta loyiha chet el investisiyasi ishtirokida amalga oshirildi. Ayni paytda tibbiyot tizimini yanada takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasiga investisiyalar oqimini ko'paytirish, investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etilmoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda 2015-2024-yillarda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy shifoxonalar soni (birlikda)

№		Yillar										2024-y.- 2015-y.ga nisba-tan o'sish (-;+)
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
1	O'zbekiston Respublikasi	1634	2106	2567	4561	6482	7156	8014	8612	9120	9496	7862

Manba: stat.uz

⁴ <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-sogliqni-saqlash-tizimini-tubdan-takomillashtirish-bojicha-kompleks-chora-tadbirlar-togrisida>.

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, 2015 yilda tibbiy xizmarlar ko'rsatuvchi xususiy shifoxonalar soni 1634 tani tashkil etgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich, 2024 yilga kelib 9496 tani tashkil etgan va bu 7862 tani tashkil etgan.

Xulosa va takliflar.

E'tiborli jihati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16 apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tibbiyot sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu hujjat davlat hamda xususiy sektorlarning birgalikda ishlashi, investorlarning yurtimiz hududida, davlat sektorida faol ish yuritishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Endilikda investorlar o'zlariga qulay bo'lgan muhitda, o'zlari istagan davlat tibbiyot muassasalariga investisiya kiritish imkoniyatiga ega. Urganishlarimizning natijalariga ko'ra, xususiy tibbiy xizmatlarning rivojlanishi mamlakatimiz aholisi uchun kutilgan sharoitlarni vujudga keltirish bilan birga quyidagi rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini qayd qilib o'tishni joiz topdik:

Sog'lom inson kapitali – iqtisodiyotning barqaror o'sishi bevosita sog'lom ishchi kuchi bilan bog'liq. Xususiy tibbiy xizmatlarning rivojlanishi inson kapitalini mustahkamlaydi.

Tibbiy turizm – sifatli va arzon tibbiy xizmatlar xorijiy bemorlarni jalb etishi mumkin. Bu esa eksport xizmatlari hajmini kengaytiradi.

Hududiy rivojlanish – xususiy klinikalar viloyat va qishloq hududlarida ochilishi orqali aholiga qulaylik yaratadi va hududlararo tengsizlikni kamaytiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Alimov A.V. (2013) *O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari. Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlari uchun o'tkaziladigan o'quv seminarlari ishtirokchilari uchun tarqatma materiallar.* Toshkent.

Ikromov A.I. (2012) *Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning ustivor yo'nalishlari.* Toshkent.

Mamatqulov B., Qosimova D. (2013) *"Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish"* Toshkent. Ilm ziyo.

Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J. (2014) *Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.* T.: "Iqtisodiyot-moliya", 256-263-betlar.

Shadieva, G. M. (2022). *SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF "FAMILY ECONOMY".* Confrencea, 1(1), 239-243.

Shodieva, G. M., & Pardaeva, O. M. () *Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty.* GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY, 23, 210.

Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). *Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги.* Самарқанд, СамКИ, 151.